



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 396 sahifa,
18-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

O'quvchi yoshlarni muhandislik kasblariga yo'naltirishda xorij tajribasi.....	10
Maxamov X. T., Omondavlatova Sofiya Baxtiyor qizi	
2-sinf darslarida "4K" ko'nikmalarini shakllantirish: XXI asr savodxonligi poydevori	14
Jo'rayeva Nargiza O'ktamovna	
Ommaviy axborot vositalarining inson ruhiy salomatligiga ta'siri: empirik tadqiqot natijalari.....	18
Abdinazarova Bibixonim Rashid qizi	
Talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda texnik loyihalarning o'rni	23
Axmadaliyev Mansurbek Erkaboy o'g'li, Rejabov Jaloliddin Sadiq o'g'li	
Masalalarni modellashtirish metodi yordamida yechish yo'llari	28
B. B. Qarshiyev, Bekmuradov Bobur Toyloq o'g'li	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida elektron o'quv materiallaridan foydalanishning afzalliklari.....	34
Tog'aymurodova Marjona Yusuf qizi	
Raqamli ta'lim muhitida dizaynerlik faoliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari.....	39
Satvoldiyeva Malaxatxon A'zamjanovna	
Metall va metallmas buyumlarga ishlov berish texnologiyasi fanidan amaliy dars mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	47
A. Safarov	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish mezonlari.....	57
Xolmatov Doston Dilshod o'g'li	
7–8-sinf biologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish metodikasi	60
Xolmurodova Sarvinoz	
Zamonaviy adabiyotda lider ayol portreti va shaxsiy rivojlanish falsafasi.....	64
G'afforova Dildora Ergashevna	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	69
Yusupova Umida Zayniddin qizi	
Umumta'lim maktabida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalashda kreativ yondashish texnologiyalarining mazmun-mohiyati.....	74
Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, G'aniyeva Dilfuza A'lam qizi	
Oila muhitining raqamli tadbirkorlik motivatsiyasiga ta'siri: psixologik tahlil	78
Tursunov Lutfulla Sayfullayevich, Boyqobilova Sevinch Fazliddin qizi	
Maktab va muzeylar aloqadorligini ta'minlash asosida o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tayyorlashning pedagogik texnologiyasi	81
Nizomxonova Nargizaposhsho Ekrixon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini shakllantirish.....	86
Xurramova Sojida Abdunazar qizi	
Oliy ta'lim tizimida liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishning kompleks yondashuvlari.....	91
Risvayeva Charos Zaydilla qizi	
Sport sohasining ommaviyligi va inklyuzivligi	94
Z. N. Urunova, M. Jaborova	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik muhitni swot-tahlil qilish va korreksiyalash	97
Sattorova Shirinoy San'atovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv ..	100
Buvrayev Akram Rustam o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy nutqiga qo'yiladigan talablar	104
Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna	
O'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlarining ahamiyati	107
Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna	



Hadislar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish	111
<i>Akaboyeva Malika Raxmatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyasi	114
<i>Beshimova Muazzam Bahodirovna, To'lanboyeva Farangis Ibrohimjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	117
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini tarkib toptirish	122
<i>Narmatova Fotima Dilshod qizi</i>	
Organizing Physics Lessons in General Education Schools Based on Gamification Elements	127
<i>Y. A. Mamatokhunov, U. S. Ismoilov, M. A. Muxtorjonova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning samaradorligi....	129
<i>Meyliyeva Sevinch Bozor qizi</i>	
Anoreksiyasi va bulimiyaning psixologik determinantlari hamda klinik jihatlari	132
<i>Askarova Nargiza Abdivaliyevna, To'raqulova Sevinch Sattorjon qizi</i>	
Koxlear implantli bolalar fonematik eshituvini shakllantirish asosida tovush talaffuzini shakllantirish	136
<i>Bozorov Otabek Yo'lchi o'g'li, Yakubova Asalxon Ulug'bek qizi</i>	
Qisqa masofaga yuguruvchi yosh sportchilarning kuch va tezlik-kuch ko'rsatkichlarini rivojlantirishda yillik rejalashtirish samaradorligi	139
<i>Eshpulatov Jamshid Nuraliyevich</i>	
Разработка модуля автопрокторинга для платформ дистанционного обучения на основе компьютерного зрения и анализа активности пользователя	144
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович</i>	
Определение нарушений академической честности на онлайн-экзаменах на основе компьютерного зрения: алгоритм и эффективность модуля камерaproctor	149
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович, Маматов Исломбек Ильесович</i>	
Zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar	154
<i>Delov To'liqin Erkinovich, Gulmirzayeva Zulayho Ko'klanboy qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar psixologiyasiga ta'siri	160
<i>Saidakbarova Nigora Abduraxim qizi</i>	
Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning besh blokli pedagogik modeli	165
<i>Amonov Mirjon Namozovich</i>	
O'smirlarning raqamli texnologiyalarga qaramligi va uning psixologik salomatlikdagi o'rni	170
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Normamatova Aziza Ibroxim qizi</i>	
Qizlarda erta nikohning psixologik omillari va sabablari	174
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	178
<i>Jumayeva Guzal Xayriddin qizi</i>	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda barmoqlar harakati mashqlari asosida kichik motorika va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish	183
<i>Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabiyevich</i>	
Globalashuv sharoitida yoshlar tashkilotlari orqali milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik strategiyalari	187
<i>Axralova Marg'uba Akmalxanovna</i>	
Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari	191
<i>Jumanova Xafiza Xoliqulovna</i>	
Zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida texnologik ta'lim mazmunini STEM yondashuvi asosida integratsiyalash va talabalarning texnik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	196
<i>Imanov Baxtiyor Berdiyevich, Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna, Barataliyeva Nasiba Maxmadaminovna</i>	
Ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining mazmuniy ta'minoti	202
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	

The Influence of a Competency-Based Approach on Educational Quality in Physics Instruction	205
<i>A. Xakimov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, M. A. Ne'matova</i>	
Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ekologik savodxonligini shakllantirishning amaliy holati	208
<i>Majitov Turg'unali Anvar o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik va psixologiyistik xususiyatlari.....	214
<i>Ismoilova Muattar Ilyosovna</i>	
Sharq mutafakkirlarining yoshlarni mehnat va kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha qarashlari.....	219
<i>Alqarov Qodir Xoimatovich, Irmatov Pirmuhammad Normat o'g'li</i>	
Metallar mavzusini interfaol metodlar asosida o'qitish orqali o'quvchilar kreativligini oshirish	222
<i>Murodova Sayyora Qanoatovna</i>	
Moliyaviy terminlarni tarjima qilishning metodologik muammolari.....	226
<i>Norboeva Dilafuz Djumaqulovna, Suvonov Ozodbek Jamshid o'g'li</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida yakuniy nazorat jarayonlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etishning afzalliklari	230
<i>Abdunabiyeva Kamola Mansurovna</i>	
Pedagogik ta'limda AI-tutor texnologiyalaridan foydalanish: o'zaro ta'sir mexanizmi va samaradorlik tahlili	236
<i>Abdunabiyeva Maftunaxon Solijon qizi</i>	
Talabalarda prokrastinatsiyani kamaytirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	240
<i>Kozimov Sayfullah Maxammadjon o'g'li</i>	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish.....	245
<i>Raximov Zokir Toshmirovich</i>	
Yosh voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini oshirishning pedagogik asoslari	249
<i>Temirov Shoirbek Raimjonovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlari mexanizmlarini takomillashtirish.....	253
<i>Kimsanova Rahnamo Solijonovna</i>	
Milliy kurash vositasida yoshlarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish.....	257
<i>Muratov Muzaffar Shermamatovich</i>	
Xavotirlanish muammosining psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'rganilganligi va o'smirlilik davrining psixologik xususiyatlari	261
<i>Mutalibjonov Nurillo Iroiljon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning innovatsion va refleksiv asoslari	264
<i>Oblayeva Lobar Erdonovna</i>	
STEM Education Technology: Physics Teaching Methodology and Future Innovations	268
<i>Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Odinakhon Sotvoldiyeva Abdumannob qizi</i>	
Mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari	272
<i>Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna</i>	
Maktabgacha tarbiya yoshda bolalar kognitiv sohasining tadqiq qilinishi.....	276
<i>Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi</i>	
Modernization of Physics Teaching Methodology Based on Stream Integration in Vocational Schools.....	279
<i>S. Z. Zaynobiddinov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Z. M. Orifjonova</i>	
Cultural Competence as a Core Component of Foreign Language Teaching: Theoretical Foundations and Pedagogical Integration	282
<i>Shahlo Obidova</i>	
Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning akmeologik madaniyatini rivojlantirishda ART-pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	286
<i>Shodmonova Shoira Saidovna, Sharifova Dildora Shavkiddin qizi</i>	
Talabalarning to'garak mashg'ulotlari orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari	290
<i>Turakulova Feruza Mamadoli qizi</i>	



Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	294
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	298
<i>Xudoyberdiyeva Nilufar Raximqulovna</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa darslarida media-kontentlardan foydalanib o'quvchilarda estetik didni shakllantirish.....	302
<i>Xudoyqulov Asilbek Aziz o'g'li</i>	
Педагогические стратегии профилактики раннего профессионального выгорания у студентов-медиков (в условиях высокой информационной нагрузки)	305
<i>Асророва Мафтунабегим Махаммадризо кизи</i>	
Формирование самоотношения у подростков, переживших насилие	308
<i>Кушакова Наргиза Исламбаевна, Азаркова Миланика Дмитриевна</i>	
Изучение развития эпистемических знаний у учащихся 5-го класса в педагогико-психологической литературе.....	311
<i>Нехочина Лола Шахобиддиновна</i>	
Когнитивные уровни читательской деятельности в заданиях PIRLS: типология, процессы понимания и система оценивания.....	314
<i>Нуруллаева Шахло Уктамовна, Александра Валерьевна Шаркова</i>	
Oila tushunchasi uning ijtimoiy ahamiyati haqida sharq mutafakkirlarining qarashlari.....	321
<i>Shokirov Xolida O'rozboq qizi, Abdurashidova Sarvinoz Akrom qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining uyg'unligi	325
<i>Bekmirzayev Shavkat Olim o'g'li</i>	
Global ta'lim tendensiyalari asosida maktabgacha ta'lim mazmunini transformatsiyalash mexanizmlari	329
<i>Haqqiyeva Fotima Olimjonovna</i>	
O'zbekiston mustaqillik taraqqiyotining turli bosqichlarida ta'lim paradigmalarining evolyutsion tahlili	333
<i>Usmonov Salohiddin Dushan o'g'li, Sayfullayeva Parvina</i>	
Malaka oshirish tizimida o'qituvchi-pedagoglarning hamkorlikka asoslangan yondashuvining ilmiy ahamiyati.....	338
<i>Sobirova Lobar Raximovna</i>	
Qutqaruvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirishda ilmiy-metodologik yondashuvning ahamiyati	343
<i>Abdunosir Abdurasulovich G'afurov</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishi kamchiliklarini bartaraf etishda pedagogik yondashuv	347
<i>To'rayeva Dilbar, Zulayxo Nazarova</i>	
Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablarining mazmun-mohiyati	350
<i>Samadova Mahliyo, Zulayxo Nazarova</i>	
Harakatli o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish	354
<i>Yaxyayeva Sojida Abduraximovna, Mustafayeva Dilfuza Jumanovna</i>	
Multimodal yondashuv asosida talabalarning ekologik kompetensiyalarini takomillashtirish tizimining ahamiyati.....	358
<i>O'sarova Muborak Fahriddinovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida o'quv faoliyati samaradorligini monitoring qilish tizimini loyihalashning tashkiliy-pedagogik asoslari.....	362
<i>Kurbanov Dilmurat Marupjanovich</i>	
Shaxs kamolotida ijtimoiy moslashuv va ma'naviy tarbiyaning ahamiyati	367
<i>Nazira Axmadjonovna Dadaboyeva</i>	
Individual yondashuv asosida maktab o'quvchilarida raqamli o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish va raqamli texnologiyalar integratsiyasi	371
<i>Xaydarova Zilola Normurodovna, Hasanov Samir Xayrulloevich</i>	

Tasviriy san'at mashg'ulotlarida differensial yondashuvning psixologik-pedagogik asoslari	375
Bekmuratova Shoxida Ne'matjonovna	
Onlayn muloqot strategiyalarining talaba kommunikativ kompetensiyasiga ta'siri	379
Davlatova Ra'no Haydarovna, Islomova Shahlo Madat qizi	
Ajrim yoqasidagi oilalarni ijtimoiy-psixologik reabilitatsiya qilish mexanizmlarini takomillashtirish	385
Tojibayeva Nargiza Keldibekovna	
Raqamli muhitda yolg'izlik fenomenining nazariy tahlili.....	389
Turg'unboeva Nodira Baxtiyor qizi	
Психологические последствия буллинга для личности подростка и его социализации.....	392
Амирова Луиза Маратовна	

MULTIMODAL YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING EKOLOGIK KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH TIZIMINING AHAMIYATI

O'sarova Muborak Fahriddinovna

Termiz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Talabalarning ekologik kompetensiyasini rivojlantirishda multimodal yondashuv tizimining ahamiyati va dolzarbligi ilmiy jihatdan asoslangan. Audial, vizual, kinestetik hamda verbal yondashuvlardan foydalanish talabalarda ekologik madaniyat va ekologik tafakkurni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi yoritilgan. Shuningdek, badiiy asarlar talabalarning ekologik dunyoqarashini shakllantirishda muhim vosita sifatida tavsiflangan. Ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologik yutuqlarning joriy etilishi esa o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: ekologik kompetensiya, multimodal yondashuv, audial, vizual, kinestetik, verbal yondashuv, ekologik madaniyat, badiiy asarlar, texnologiya, ta'lim jarayoni, talabalar rivojlanishi.

Abstract: The significance and relevance of the multimodal approach system in developing students' ecological competence are scientifically substantiated. The use of auditory, visual, kinesthetic, and verbal approaches is shown to have a positive impact on the development of students' ecological culture and ecological thinking. Furthermore, literary works are described as an important tool in shaping students' ecological worldview. The integration of modern technological achievements into the educational process is also emphasized as a factor contributing to the effectiveness of educational activities.

Key words: ecological competence, multimodal approach, auditory, visual, kinesthetic, verbal approach, ecological culture, literary works, technology, educational process, student development.

Аннотация: Научно обоснованы значение и актуальность системы мультимодального подхода в развитии экологической компетентности студентов. Показано, что применение аудиального, визуального, кинестетического и вербального подходов оказывает положительное влияние на развитие экологической культуры и экологического мышления студентов. Кроме того, художественные произведения рассматриваются как важный инструмент формирования экологического мировоззрения обучающихся. Подчеркивается, что внедрение современных технологических достижений в образовательный процесс способствует повышению эффективности учебных занятий.

Ключевые слова: экологическая компетентность, мультимодальный подход, аудиальный, визуальный, кинестетический, вербальный подход, экологическая культура, художественные произведения, технологии, образовательный процесс, развитие студентов.

KIRISH

Bugun ta'lim va texnologiyalar uyg'unlikda shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda ta'limning har bir bo'g'inida texnologik yondashuv asosida ta'limiy rivojlanishga alohida urg'u berilmoqda. Ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va uni har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish dolzarb masalaga aylanmoqda ^[1].

Bugungi kunda hayotimizni texnologik kashfiyotlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Axborot texnologiyalari inson taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lib, hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar, xususan, yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rin egallamoqda.

Axborot texnologiyalari va texnik vositalar samaradorligini belgilovchi didaktik materiallardan keng foydalanish zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi. Xususan, ta'lim sohasining barcha jabhalarida multimodal yondashuvning samarasi bugungi kunda naqadar muhim ekanligi va unga bo'lgan talabning tobora ortib borayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Multimodal yondashuvning mazmuniga



batafsil to'xtaladigan bo'lsak, u ta'lim jarayonida bir nechta axborot uzatish tizimlaridan uyg'un holda foydalanishni anglatadi. Bunga asosan quyidagi to'rtta asosiy modal tur kiradi:

- audial (audio, podkast, nutq);
- vizual (video, rasm, grafik);
- kinestetik (amaliy mashg'ulotlar, tajribalar);
- verbal (matn o'qish).

Yuqorida misol tariqasida keltirilgan modallar ta'lim sifatini oshirishda pedagogga yaqindan yordam bermoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ekologik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi bugungi davr talablaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarning ekologik kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi so'nggi yillarda pedagogika va ekologik ta'lim sohasidagi muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda. Xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda ekologik ta'limning asosiy maqsadi shaxsda tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabat, ekologik madaniyat hamda barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan ekologik tafakkurni shakllantirish ekanligi ta'kidlangan. Xususan, ekologik kompetensiya shaxsning ekologik bilim, amaliy ko'nikma va ijtimoiy mas'uliyatni uyg'un ravishda namoyon etuvchi integral sifati sifatida tavsiflanadi.

Pedagogik tadqiqotlarda multimodal yondashuvning ta'lim samaradorligiga ta'siri keng o'rganilgan bo'lib, unda audial, vizual, kinestetik va verbal modalliklardan birgalikda foydalanish o'quvchilarning bilimlarni qabul qilish va o'zlashtirish darajasini oshirishi qayd etilgan. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etilgan multimodal muhit talabalarning faolligini oshirish, tanqidiy fikrlashini rivojlantirish va amaliy faoliyatga yo'naltirilgan kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ekologik ta'lim sohasidagi "Eco-schools", "Green University", "Earth School" kabi xalqaro ta'lim dasturlarida ham yoshlar ongida ekologik madaniyatni rivojlantirish, ekologik muammolarga yechim topish ko'nikmalarini shakllantirish va ekologik mas'uliyatni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa multimodal yondashuv asosida ekologik kompetensiyalarni takomillashtirishning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ma'lumotlarni olish uchun ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish, kuzatish, so'rovnoma va taqqoslash usullaridan foydalanildi. Talabalarning ekologik kompetensiyalarini rivojlantirishga oid mavjud ilmiy qarashlar va multimodal yondashuvning amaliy imkoniyatlari o'rganildi. Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar tahlil, umumlashtirish va qiyosiy tahlil usullari orqali qayta ishlandi. Shuningdek, multimodal yondashuvning audial, vizual, kinestetik va verbal komponentlarining talabalarning ekologik bilimlari hamda ekologik madaniyatini shakllantirishdagi ta'siri tahlil qilinib, natijalar ilmiy jihatdan asoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Multimodal yondashuv tarkibiga kiradigan audial va verbal yondashuv asosida talabalarda ekologik kompetensiyalarni rivojlantirishga misol keltirib o'tamiz. Tarixdan ma'lumki, buyuk mutafakkir va olim ajdodlarimiz tabiat hamda undagi barcha unsurlar, hayvonot va o'simliklar olami haqida o'z asarlarida bizga yetarlicha ma'lumotlar qoldirganlar. Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Forobiy, Mirzo Ulug'bek kabi allomalar nomlarini ko'plab keltirish mumkin. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari haqida misol keltirib o'tamiz. U bir mamlakat o'simliklarini boshqa mamlakat hududlariga o'tkazib, bog'lar barpo qilgan. Jumladan, Kobulga shimoldan olcha, Hindistondan esa banan va shakarqamish keltirib ekan^[7].

Bobur kabi buyuk ajdodlarimizning asarlari bugungi kunda ham o'z qadrini va ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan. Boburning ushbu memuar va tarixiy asari talabalarga o'sha davrdagi Andijon, Samarqand, Kobul, G'azna va Hindistonning hayvonot olami, iqlimi, o'simliklar dunyosi hamda geografik joylashuvi haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar beradi. "O'rta osiyolik buyuk allomalarning tabiat va uni asrash to'g'risidagi qarashlari hozirgi kunda ham o'ziga xos ahamiyatga ega"^[1].

Yuqoridagi asarlar hamon o'rganilmoqda va talabalarga o'zining qimmatli ma'lumotlarini ulashib kelmoqda. Bugungi kunda talabalarda ekologik kompetensiyani rivojlantirishda audial va verbal yondashuvlar asosida yangi usullarni qo'llash mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarining barcha ta'lim yo'nalishlarida badiiy asarlar orqali talabalarning tabiatga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirish va shakllantirish mumkin. Jahon va o'zbek adabiyotlarida talabalarni ona tabiatga, hayvonot olamiga, o'simliklarga va insonlarga nisbatan mehr-muhabbat ruhida tarbiyalaydigan badiiy asarlar juda ko'p. Ekologik kompetensiyani shakllantirishda aynan badiiy asarlardan foydalanishning bir qator afzalliklari mavjud. Bular:

- badiiy asarlar voqealar rivoji jihatidan ilmiy asarlar va darsliklardan qiziqarliligi bilan ajralib turadi;
- badiiy asarlarda talabaga bevosita biror ish-harakatni bajarish yoki aniq yo'l-yo'riq ko'rsatish ta'kidlanmaydi, balki mazmun qahramonlarning harakatlari va nutqi orqali ifodalanadi;
- talabalarning badiiy asarlarni o'qishi ularning tafakkurini kengaytiradi va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Talabalarning ekologik madaniyati va dunyoqarashini shakllantiruvchi bunday asarlar qatoriga xalq og'zaki ijodiga mansub "Alpomish", "Go'ro'g'li" dostonlari, Rey Bredberining "Marsga hujum", Chingiz Aytmatovning "Qiyomat", Yusuf Samad o'g'lining "Qatl kuni", Shukur Xolmirzayevning "Omon ovchining o'limi", Isajon Sultonning "Bilga xoqon", Olim Toshboyevning "Kishan" nomli asarlari kiradi. Ushbu asarlar talabalarda tabiatga va hayvonot olamiga nisbatan mehr, shafqat hamda muhabbat bilan qarash tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur asarlar nomlari misol tariqasida qisqacha keltirildi. Aslida, ularning ro'yxatini yana davom ettirish mumkin. Bunday asarlar talabalarning ekologik kompetensiyalarini samarali rivojlantiradi, chunki ilmiy va axborot ko'rinishidagi ma'lumotlar ayrim hollarda talabalarni zeriktirishi mumkin. Biroq badiiy asarlar ularda qiziqishni oshiradi. Asarlardagi obrazlar va voqealar o'quvchini o'ziga tortadi hamda ta'sirlantiradi. Natijada, ularda atrof-muhitga bo'lgan munosabat salbiydan ijobiy tomonga o'zgaradi. Asarlarning umumiy mazmuni ham talabani ekologik madaniyatli bo'lishga, tabiatdan kelajak avlodlarning ham haqqi borligini anglashga undaydi.

"Mars unda yashovchilar aybi bilan qip-qizil sayyoraga aylangan: bir paytlar gullab-yashnagan sayyorada bugun tiriklikdan asar ham yo'q. Hammayoq qum va sahroga burkangan. Shaharlar vayron bo'lgan, hayvonot va nabotot dunyosi qirilib ketgan. Ekologik fojia sayyorani shu holatga keltirgan. Bu sayyorada yashovchilar orasida hech qanday insonga xos mas'uliyat hissi qolmagan – ular ma'lum dasturlarning ijrochilari, xolos" ^[5].

Rey Bredberining "Marsga hujum" asarining umumiy mazmun-mohiyati mana shu kabi fikr va mulohazalardan iboratdir ^[6]. Talabalarning ushbu badiiy asarni o'qishlari orqali Mars ham bir paytlar Yer kabi gullab-yashnaganligini fantastik voqealar asosida anglashlari mumkin. Shuningdek, insonlarning ekologiyaga nisbatan beparvoligi natijasida sayyora yashash uchun yaroqsiz holatga kelib qolishi mumkinligi haqidagi xulosaga kelinadi.

Mazkur asar talabalarga ogohlantiruvchi signal vazifasini ham bajaradi, ya'ni ekologiyaga nisbatan munosabatni ijobiy tomonga o'zgartirish va uni asrab-avaylash zarurligini anglatadi. Aks holda, Yer ham Mars kabi yashash uchun yaroqsiz sayyoraga aylanishi mumkin. Ushbu jarayonlar multimodal yondashuvning verbal (matn o'qish) yondashuviga misol bo'la oladi. Shu bilan birga, bu jarayonni audial yondashuvga ham misol qilish mumkin. Chunki bugungi kunda millionlab insonlarning sevimli ilovasiga aylangan "Mutolaa" ilovasini misol tariqasida keltirish mumkin.

"Marsga hujum" kabi yuqorida sanab o'tilgan ko'plab asarlarni audio shaklda ham tinglash mumkin. Bu esa talabalarga qo'shimcha qulaylik yaratadi. Yo'lda ketayotganida yoki boshqa ish bilan band bo'lgan vaqtida ham tinglash imkoniyati mavjud. Ushbu yondashuvlar talabalarning ekologik kompetensiyalarini rivojlantirishga yaqindan yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi texnika va texnologiyalar rivojlangan davrda talabalarning ekologik madaniyatini rivojlantirish uchun turli texnik vositalar hamda samarali metodlardan foydalanish ko'zlangan maqsadga erishishga yordam beradi. Ushbu jarayonda quyidagi tavsiyalarni keltirish mumkin:

- talabalarning ekologik kompetensiyalarini rivojlantirishda audio va video shakldagi dars materiallarini ta'lim jarayoniga keng joriy etish;
- kinestetik yondashuv asosida amaliy ishlarni jamoaviy tarzda tashkil etish;
- ekologik kompetensiyani shakllantirishda badiiy asarlardan samarali foydalanish.

Mazkur tavsiyalarni amalga oshirishda multimodal yondashuv o'zining samaradorligi bilan alohida ajralib turadi. Ushbu jarayonda pedagog va talabadan yagona maqsad yo'lida hamjihatlik hamda mas'uliyat talab etiladi. Talabalarning ekologik kompetensiyalari bosqichma-bosqich rivojlanib borar ekan, jamiyatda ekologik barqarorlik darajasi ham shunga mos ravishda oshib boradi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun. 09.12.1992-yil, 754-XII-son, 4-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–6079-son. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PQ–184-sonli qarori.
4. Ergasheva A. Umumiy ekologiya. – T.: O'zbekiston, 2003.
5. Eshonqul N. Kitob bandasi. – T.: Akadernashr, 2022.
6. Omonov H.T., Xo'jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Iqtisod-moliya nashriyoti, 2009.
7. Sattorov Z.M. Ekologiya. – T.: Sano-standart nashriyoti, 2018.
8. Sultonov P. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. – T.: "Musiqqa" nashriyoti, 2007.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.